

## **2023-2024 o‘quv yili malakaviy amaliyot natijalari bo‘yicha marketing va talabalar amaliyoti bo‘limining HISOBOTI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60 sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 15-martdagи 04-593-sonli topshirig‘ini ijrosini ta’minlash, shuningdek, o‘quv jarayoni va amaliyot integratsiyasini yanada takomillashtirish hamda Oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 202-sonli ijrosini ta’minlash maqsadida:

2023-yil 30-avgustda “Universitetda 2023-2024 o‘quv yili uchun talabalar malaka amaliyotini tashkil etish to‘g‘risida”gi 263-sonli universitet rektorining buyrug‘i chiqarildi.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tasdiqlangan o‘quv grafigi asosida mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchi talabalarining malaka amaliyoti o‘tkazildi.

### **Ingliz tili I fakulteti**

O‘zDJTU Ingliz tili I fakultetida amaldagi davlat ta’lim standartida ko‘zda tutilgan talablar asosida jami 580 nafar bitiruvchi talaba 2023-yil 4-sentyabrdan 2023-yil 30-sentyabrgacha pedagogik amaliyotni o‘tash uchun fakultet dekanining 15-sonli farmoyishi asosida belgilangan ob‘yektlarga yuborildi. Rahbarlar amaliyot davrida Toshkent shahridagi maktab va xususiy sektorlardagi amaliyotchilarning dars jarayonlarini nazorat qilib turishdi. Viloyatlarda amaliyot o‘tagan talabalar bilan telegram kanallari orqali muntazam ravishda aloqalar olib borildi. Talabalar belgilangan ob‘yektlarda amaliyotlarini o‘tashdi va ularning ishlari fakultet tomonidan ishlab chiqilgan amaliyot dasturi asosida tuzilgan portfoliolarini himoyasi orqali baholandi. Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi vakillari tomonidan joylarga borib amaliyot (hujjatlari) portfoliolarini o‘rganilganda 13 nafar talaba muayyan sabablarga ko‘ra (kech tiklanganligi, boshqa OTMdan ko‘chirilganligi sababli) belgilangan muddatda amaliyot o‘tay olmaganligi aniqlandi. Fakultet dekanining bildirgisi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 1-bob 8-bandiga asosan universitet rektorining buyrug‘i binoan yuqorida ta’kidlangan talabalar asoslarini taqdim etishganidan so‘ng 18.11.2023-yildan 18.12.2023-yilgacha amaliyotni qayta o‘tashga ruxsat berildi. Shu talabarning barchasi amaliyotni muvaffaqiyatli o‘tashdi. Fakultetning 3-kurs talabalari 2024-yil 29-yanvardan 2024-yil 24-fevralga qadar malakaviy amaliyotni o‘tash uchun fakultet dekanining 4-sonli farmoyishi asosida, 2-kurs talabalari 2024-yil 26-fevraldan 2024-yil 20-martga qadar malakaviy amaliyotni o‘tash uchun fakultet dekanining 11-sonli

farmoyishi asosida belgilangan ob'yektlarga yuborildi. Amaliyot yakuniga ko'ra malaka amaliyoti davrida ushbu jarayonga uzrli sababga ko'ra qatnashmagan akademik ta'tildan qaytgan, xorijiy stajirovkadan qaytgan va o'qishini ko'chirganligi sababli belgilangan muddatda amaliyot o'tay olmagan 7 nafar 2-3-bosqich talabalariga 2024-yil 11-martdan 2024-yil 20-aprelga qadar tashkil etiladigan malakaviy amaliyotni qayta o'tarishiga ruxsat berildi.

### **Ingliz tili II fakulteti**

O'zDJTU Ingliz tili II fakultetida amaldagi davlat ta'lim standartida ko'zdautilgan talablar asosida jami 654 nafar bitiruvchi talaba (494 nafar talaba Ingliz II fakulteti, 160 nafari maktabgacha ta'lim yo'nalishi) 2023-yil 4-sentyabrdan 2023-yil 30-sentyabrgacha pedagogik amaliyotni o'tash uchun fakultet dekanining 43/23-sonli farmoyishi asosida belgilangan ob'yektlarga yuborildi. Rahbarlar amaliyot davrida Toshkent shahridagi maktab va xususiy sektorlardagi amaliyotchilarning dars jarayonlarini nazorat qilib turishdi. Viloyatlarda amaliyot o'tagan talabalar bilan telegram kanallari orqali muntazam ravishda aloqalar olib borildi. Talabalar belgilangan ob'yektlarda amaliyotlarini o'tashdi va ularning ishlari fakultet tomonidan ishlab chiqilgan amaliyot dasturi asosida tuzilgan portfoliolarini himoyasi orqali baholandi. Talabarning barchasi amaliyotni muvaffaqiyatli o'tashdi. Fakultetning 3-kurs talabalari 2024-yil 29-yanvardan 2024-yil 24-fevralga qadar, 2-kurs talabalari 2024-yil 26-fevraldan 2024-yil 25-martga qadar malakaviy amaliyotni o'tash uchun belgilangan ob'yektlarga yuborildi. Amaliyot yakuniga ko'ra malaka amaliyoti davrida ushbu jarayonga uzrli sababga ko'ra qatnashmagan, akademik ta'tildan qaytgan, xorijiy stajirovkadan qaytgan va o'qishini ko'chirganligi sababli belgilangan muddatda amaliyot o'tay olmagan 33 nafar 2-3-4-bosqich talabalariga 2024-yil 22-apreldan 2024-yil 22-mayga qadar tashkil etiladigan malakaviy amaliyotni qayta o'tashiga ruxsat berildi.

### **Ingliz tili III fakulteti**

O'zDJTU Ingliz tili III fakultetida amaldagi davlat ta'lim standartida ko'zdautilgan talablar asosida jami 519 nafar bitiruvchi talaba 2023-yil 4-sentyabrdan 2023-yil 30-sentyabrgacha pedagogik amaliyotni o'tash uchun fakultet dekanining 4-sonli farmoyishi asosida belgilangan ob'yektlarga yuborildi. Rahbarlar amaliyot davrida Toshkent shahridagi maktab va xususiy sektorlardagi amaliyotchilarning dars jarayonlarini nazorat qilib turishdi. Viloyatlarda amaliyot o'tagan talabalar bilan telegram kanallari orqali muntazam ravishda aloqalar olib borildi. Talabalar belgilangan ob'yektlarda amaliyotlarini o'tashdi va ularning ishlari fakultet tomonidan ishlab chiqilgan amaliyot dasturi asosida tuzilgan portfoliolarini himoyasi orqali baholandi. Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi vakillari

tomonidan joylarga borib amaliyot (hujjatlari) portfoliolarini o‘rganilganda 14 nafar talaba asosli sabablarga ko‘ra (kech tiklanganligi, boshqa OTMdan ko‘chirilganligi sababli) belgilangan muddatda amaliyot o‘tay olmaganligi aniqlandi va fakultet dekanining bildirgisi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 1-bob 8-bandiga asosan universitet rektorining buyrug‘i binoan yuqorida ta’kidlangan talabalar asoslarini taqdim etishganidan so‘ng 18.11.2023-yildan 18.12.2023-yilgacha amaliyotni qayta o‘tashga ruxsat berildi. Shu talabarning barchasi amaliyotni muvaffaqiyatli o‘tashdi. Fakultetning 3-kurs talabalari 2024-yil 29-yanvardan 2024-yil 24-fevralga qadar malakaviy amaliyotni o‘tash uchun fakultet dekanining 18/24-sonli farmoyishi asosida, 2-kurs talabalari 2024-yil 26-fevraldan 2024-yil 25-martga qadar malakaviy amaliyotni o‘tash uchun belgilangan ob‘yektlarga yuborildi. Amaliyot yakuniga ko‘ra malaka amaliyoti davrida ushbu jarayonga uzrli sababga ko‘ra akademik ta’tildan qaytgan, xorijiy stajirovkadan qaytgan va o‘qishini ko‘chirganligi sababli belgilangan muddatda amaliyot o‘tay olmagan 10 nafar 2-3-bosqich talabalariga 2024-yil 22-apreldan 2024-yil 22-mayga qadar tashkil etiladigan malakaviy amaliyotni qayta o‘tashiga ruxsat berildi.

**Marketing va talabalar amaliyoti  
bo‘limi boshlig‘i:**



**T.Ismailov**